

PEDOGOGIKA METODOLOGIYASINING AHAMIYATI

Xurramova Mohidil Baxtiyorovna

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogika kafedrasida o'qituvchisi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada pedagogika haqida bir qator masalalar haqida so'z yuritiladi. Uni hozirgi kundagi ahamiyati haqida so'z ketadi.*

Kalit so'zlar: *Pedagogika, predmet, kontekstlik, didaktika, tarbiya, maqsad ta'lim nazariyasi.*

Pedagogika predmeti. Pedagogika (yunoncha paidagogike bo'lib, paidagogos («bola» va «etaklayman») tushunchasi asosida shakllangan) shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan muayyan tizimli faoliyat, shuningdek, ta'lim-tarbiya mazmuni, umumiy qonuniyatlari, shakli va metodlari haqidagi fan. Pedagogika ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, yosh avlod hamda kattalarni tarbiyalash haqida bahs yuritadi.

Pedagogika tarbiyaning mohiyatini va shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirishda tarbiyaning rolini yoritib beradi, tarbiyaning maqsadi, mazmuni, metodlari, uni tashkil etishdagi shakllar o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rsatadi. Shuningdek, pedagogika o'z taraqqiyoti davomida ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari, yo'llarini yoritib beradi, tarbiyaviy ishning shakllarini ko'rsatadi. Pedagogika tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va bolaning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarib borishini o'rgatish bilan birga tarbiyaning tarkibiy qismlari, ular o'rtasidagi mustahkam aloqa va bog'lanishlarni ochib beradi. Pedagogika fani tarbiyalovchilar va tarbiyalanuvchilarning faoliyatini ham o'rganadi. Shuningdek, u tarbiyaviy muassasalardagi xodimlarga, ota-onalarga yoshlarni tarbiya qilish, o'qitishdagi mahoratini yanada takomillashtirish yo'lida amaliy tavsiyalar beradi.

Pedagogikaning fan sifatida taraqqiy etish jarayoniga turli pedagog olimlar tomonidan turlicha fikrlar beriladi.

Pedagogika kontekstlik ma'nosiga ega bo'lib o'rganuvchining turli xil faoliyatlarida o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Amerikalik pedagog olim Bernstein fikriga ko'ra pedagogika bir insonning ongli faoliyati boshqa bir insonni o'rganishini ta'minlaydi. Uning fikricha pedagogika shaxsning yangi jihatlarini kashf qilish, fikrlarni bog'lash, bilim, amaliyot va shaxs fikrini ta'minlovchi vosita xisoblanadi. Shu bilan birga u o'qituvchining tashkilotchiligi, boshqaruvchanligi, talaba fikrini tahlil qila olishi va talabaga nisbatan o'qituvchi masxuliyatini ko'rsatuvchi xisoblanadi.[1]

Alexander's fikriga ko'ra pedagogika ham faoliyat ham tahlil turi xisoblanadi. Pedagogika o'qituvchilarning fikrlashi, ularning e'tiqodi, munosabati, bilimi, talabalarni o'qitish va o'rganish jarayonida dars rejasini tushunishi, shuningdek ularni o'qitish

jarayonidagi ta'siridir va pedagogika ijtimoiy, madaniy, siyosiy jarayonlar bilan bog'langan[2].

Pedagogika fani shaxsni rivojlantirishning ikki muhim jihati – uni o'qitish va tarbiyalashga asosiy e'tiborni karatganligi bois ta'lim nazariyasi (didaktika) va tarbiya nazariyasi fanning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi.

Ta'lim nazariyasi (didaktika) – shaxsni intellektual jihatdan rivojlantirish, ta'lim jarayonining mohiyati, bosqichlari, tamoyillari, qonuniyatlari, o'qituvchi va o'qituvchi faoliyati birligi, o'qitishning mazmuni, shakl, metod va vositalari, ta'lim jarayonini takomillashtirish yo'llari kabi muammolarni tadqiq etadi.

Ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra umumiy va maxsus kabi turlarga ajratiladi. Umumiy ta'lim har bir shaxsning kamol topishi hamda u tomonidan hayotiy faoliyatni tashkil eta olishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni berishga yo'naltiriladi. Umumiy ta'lim asosida o'zlashtirilgan ma'lumotlar kelgusida shaxsning kasbiy tayyorgarligini ta'minlashga imkon beruvchi maxsus ta'lim olishi uchun asos bo'ladi. Maxsus ta'lim – o'zida mutaxassislik xususiyatlarini namoyon qilib, shaxsga muayyan kasbiy faoliyatni tashkil etish borasida nazariy bilimlarni berish asosida amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonning istiqbol va istiqbol yo'lini ko'rsatuvchi omillardan biri o'zlikni anglashdir. Yoshlarimiz ajdodlarimizning fan va barkamol avlod tarbiyasiga qaratilgan g'oyalarni, qarashlarini, shuningdek, milliy va umumbashariy qadriyatlarni, xalq og'zaki ijodiyotidagi ilg'or g'oya va fikrlarni o'rganib, ularni ardoqlashlari lozim. Zeroki, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek: “Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish- turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarnihammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zliginiham unutmasin. Bizkimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan¹”. Tarbiya esa o'z kasbining yetuk mutaxasislari bo'lgan pedagoglar orqali beriladi. Shuning uchun pedagogika metodologiyasini qancha tadqiq etsak ham kamdir.

Pedagogika tarixiy o'z ildizlariga ega: Ta'lim-tarbiya va ma'rifatga doir g'oyalarning falsafiy ildizlari: Pedagogika tarixi faniturlijamiyatlarda mafkuraviy qarashlarga ko'ra o'zgarib, rivojlanib, ilg'or pedagogik fikr va g'oyalar miqdordan sifat o'zgarishlarga egabo'lgan.

Diniy-ma'naviy ildizlari: Inson kamolotidagi ma'naviyat haqida Qur'oni karim va shariat hukmlarida, Hadisi shariflarda esa ilmiy-nazariy bilimlarning tartib-qoidalari berilgan. Bu esa pedagogika tarixidagi ta'lim- tarbiya va ma'rifiy ishlarga yanada sayqal beradi².

Pedagogika tarixan falsafa, psixologiya, iqtisodiyot va ma'naviy-ma'rifiy fanlar bilan birgalikda rivojlangan.

Pedagogikasohasidako'plabizlanishlar olib borgan olimimiz O. Hasanboyeva aytganlaridek: "Pedagogika – komil inson tarbiyasiga doir yig'ilgan tajribalardan iborat boy xazinadir"³. Pedagogika metodologiyasi esa, ushbu xazinadan ijodiy, tanqidiy va oqilona foydalanish imkoniyatidir.

Pedagogika fani mustaqil O'zbekiston Respublikasida amal qiladigan uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimining nazariy asoslari, qonuniyat va prinsiplari, o'ziga xos yo'nalishlari ta'lim-tarbiya jarayonining shakllanishi, tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rgatuvchi fandır.

Pedagogika fani O'zbekiston Respublikasida ilmning ustuvor sohasi sifatida e'tirof etiladi. Shuning uchun ham, pedagogika fanining metodologiyasi sifatida Jahonova Sharq pedagogik tafakkuri durdonalarini mujassamlashtirgan manbalar, tasavvuf ta'limoti namoyondalarining badiiy va ilmiy asarlari, sharqona ta'lim-tarbiya vositalari va metodlarini o'z ichiga olgan manbalar, milliy istiqlol g'oyasi, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risda»gi Qonuni hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», dialektik bilish nazariyasi va tabiiy ilmiy majmui e'tirof etiladi. Yuqorida keltirilgan pedagogika fanining metodologiyasini pedagogik amaliyotga tatbiq etishda jahon pedagogik tajribasida tan olingan va samarali natijalar berayotgan nazariy qarashlar, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish nazarda tutiladi. Ular shaxsning o'quv-biluv faoliyatini liberallashtirish yo'llari, ta'lim mazmunini tanlash va ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish prinsiplari, politexnik va kasb ta'limi nazariyasi, ta'limni ijtimoiy foydali mehnat bilan uyg'unlashtirish konsepsiyasi, ta'lim-tarbiya jarayonining fiziologik qonuniyatlariga asoslanib tashkil etilishida namoyon bo'ladi.

Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek:

«Fuqarolar endi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning ishtirokchisi, bajaruvchisi emas balki bunyodkoriva tashkilotchisidir⁴». Bunday yangicha yondashishlar pedagogika fanining obyektini va predmetini kengaytirdi. Endilikda pedagogika fanining obyektini faqat ta'lim-tarbiya jarayonining nazariy, metodologik amaliy ta'minlovchi emas, balki komil inson shakllanishi, rivojlanishini ta'minlaydigan keng sohalarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun,

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturida»gi milliy modelida shaxs kadrlar tayyorlash tizimining boshob'ekti va sub'ekti sifatida qaraladi. Bundan tashqari pedagogika fani oldiga angicha fikrlaydigan, yangicha tafakkur, milliy mafkuraga ega komil insonni shakllantirish vazifalari qo'yildi. Pedagogika fanining metodologiyasida, mazmunida, tarbiya nazariyasida, ta'limning tashkil etish shakllarida, komillik darajasi, sifatlarini aniqlashda katta islohiy o'zgarishlar bo'ldi. Bu o'zgarishlar yangi pedagogik texnologiyalarda o'z aksini topishilozim.

Pedagogika ta'lim-tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarib borishini o'rgatadi, mukammal inson tarbiyasining tarkibiy qismlarini va ular o'rtasidagi aloqa va og'lanishlarni ochib beradi. Shu asnoda ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tarbiyaning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari, yo'llarini o'rsatib beradi.

Pedagog o'quvchilarning aqliy, axloqiy, jismoniy, estetik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarini tarbiyalash uchun, ularning kundalik xatti-harakat va fe'l-atvorlariga doimo ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy hayot tajribasining ko'rsatishicha, agar inson o'z shaxsiy manfaatini ko'zlab o'qisa, o'rgansa, o'z ustida tinmay qunt bilan shug'ullansa, u oliy ma'lumot olishi mumkin. Lekin haqiqiy mukammal kamolot egasi bo'lishi uchun u ta'lim va ma'lumotdan tashqari, yuksak insoniy fazilatlar asosida tarbiyalangan bo'lishi shart. Ana shu fazilatlarga ega bo'lgan damni tarbiya ko'rgan odam deyiladi.

Ma'lumki, har bir o'qituvchi-tarbiyachi, o'quvchi o'z ona yurti tarixini bilishi, vatanparvar bo'lishi lozim. Ta'lim-tarbiya tarixi, pedagogika tarixi fanidan xabardor bo'lmay turib, o'qituvchilik qilishi mumkin emas. Pedagogika nazariyasini chuqurroq anglash uchun uning o'tmishdagi taraqqiyotini bilish kerak. Masalan, pedagogika tarixi o'tmishda ta'lim-tarbiya borasida qanday kurashlar bo'lga ni va qanday qilib ijobiy yoki salbiy yakunlangani, ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning o'zgarishi tufayli pedagogik g'oyalar, tarbiya muassasalaridagi ishlarning mazmuni va metodlari qanday o'zgarib borganini, tarixda ijod etgan olimlarning pedagogik g'oyalari va ularning faoliyatlari bilan tanishtiradi.

REFERENCES:

1. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy kadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogika fanlari doktori. -diss.-T., 2000.-298 b.
2. Otamurodov S. Ma'naviyat va ma'rifat asoslari. — T.: o'qituvchi, 1991.-200b.
3. Ochilov.M. Muallim — qalb me'mori. — T: O'qituvchi, 2001.-429b.
4. Rizayev.O. Pedagogika tarixi-T.: «Cho'lpon», 1993yil.
5. Hasanboyeva va b. "Pedagogika tarixi" Toshkent 2004.4-bet
6. Usmonov R. Saodatnoma.-T.: «O'qituvchi», 1995yil.
7. Umarov E. Estetika: (Nafosatshunoslik). — T.: O_zbekiston, 1995. - 246
8. O.<https://uza.uz/oz/posts/shavkat-mirziyoyev-yoshlar-tarbiyasi-eng-muhim-masalalardan-16-06-2017>
9. <https://hozir.org/soli-akademiyasi.html?page=19>